

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b><br>Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....   | 8   |
| <b>T.A.Egamberdiyeva</b><br>Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....  | 13  |
| <b>N.T.To‘xtaboyev</b><br>Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi tahlili .....   | 18  |
| <b>I.B.Siddiqov</b><br>Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....           | 25  |
| <b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b><br>Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....   | 28  |
| <b>Sh.A.Mamajonov</b><br>Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....  | 32  |
| <b>M.M.Kuzibayeva</b><br>Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....  | 37  |
| <b>K.R.Abdullayeva</b><br>Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....                                 | 39  |
| <b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b><br>Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....   | 43  |
| <b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b><br>Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....                   | 48  |
| <b>R.Z.Xayrov</b><br>Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....                                   | 54  |
| <b>G.U.Radjabova</b><br>Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....   | 61  |
| <b>Г.К.Якубова</b><br>Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" ..... | 67  |
| <b>M.M.Xamroliev</b><br>Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....  | 73  |
| <b>U.V.Mamadjanov</b><br>Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....  | 76  |
| <b>S.X.Kaxxarov</b><br>Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....  | 80  |
| <b>X.X.Tojiyev</b><br>Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....    | 85  |
| <b>D.S.Sobirov</b><br>Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....   | 92  |
| <b>D.Z.Isaboyeva</b><br>Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....         | 96  |
| <b>F.Q.Yusupjanova</b><br>O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....  | 99  |
| <b>X.A.Ustadjalilova</b><br>Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....  | 102 |

**MAKTABDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI****МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МУЗЫКИ В ШКОЛЕ****METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING MUSIC AT SCHOOL****Mamadjanov Ulug'bek Valiyevich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti  
musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini tashkil etishning metodologik asoslari haqida so'z yuritilgan. Dars mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi, texnologiyalari va dars jarayonida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati ilmiy asoslangan.*

**Аннотация**

*В данной статье говорится о методических основах организации уроков музыкальной культуры в общеобразовательных школах. Сегодняшняя важность использования новых инновационных технологий в методике, технологиях и учебном процессе научно обоснована.*

**Abstract**

*This article talks about the methodological basis of organizing music culture lessons in secondary schools. Today's importance of using new innovative technologies in the methodology, technologies and teaching process is scientifically based.*

**Kalit so'zlar:** Metodika, texnologiya, dars uslubi, dars xaritasi, innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiyalar modeli.

**Ключевые слова:** Методика, технология, стиль преподавания, карта урока, инновация, технология, модель педагогических технологий.

**Key words:** Methodology, technology, teaching style, lesson map, innovation, technology, model of pedagogical technologies.

**KIRISH**

Bugungi kunda jahonda yoshlarga taalluqli bo'lgan dolzarb masalalar, avvalo, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, ularni katta maqsadlar sari safarbar etish, huquq va manfaatlarini himoya qilishga yangicha munosabat shakllanmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida, pedagogik amaliyotida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida yoshlar siyosati, ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari keng qamrovda tadqiq etilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligi, ijtimoiy mas'uliyati va faol fuqarolik pozitsiyasini oshirish muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat hamda davlat organlari va oila institutining hamkorligi asosida shakllantirilishi zurligi kelib chiqmoqda. Shuningdek, chekka hududlardagi maktab o'quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijtimoiy faollik kompetentsiyalari rivojlantirish masalalari ham o'rganilmoqda va natijalarning keng ijtimoiy hayotga tadbiiq etilishi ortidan barqaror ijtimoiy taraqqiyot sharoitlari yaratilmoqda.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun esa, «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan tamoyilga [3;452] tayanish zarur. Mazkur masalalar mamlakatimizda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda uzluksiz ta'lim tizimi va mahalla instituti hamkorligini takomillashtirish jarayonini tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi» to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi «Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maktabda musiqa fanini o'qitishning metodologik asoslari masalalari mamlakatimiz olimlari Q.Mamirov, S.Yuldasheva, R.Qodirov, D.Y.Soipova, R.G.Safarova, G.J.Tulenova kabi

## PEDAGOGIKA

musiqashunos, faylasuf, sotsiolog, pedagog, psixolog olimlari tomonidan o'rganilib, ilmiy-metodikasoslari ishlab chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida musiqiy ta'lim tarbiya, ularning ijtimoiy faolligi masalalarini D.B.Kabolevskiy, A.V.Belyayev, V.Apraksina, K.Makarov, M.Davidova, R.A.Poluyanova, S.A.Kartseva, T.V.Popova, S.Chernousova, G.K.Selevko kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

G'arb mamlakatlari olimlaridan J.J.Russo, M.Kagan, L.Shubert, B.Dimentman, L.Gonzales, E.Goffman, A.Kollins, D.Kempbell, R.Myuller, L.Mozenmayr, R.Siers, A.Smit, K.Frankolar tomonidan maktab, oila, jamoatchilikning o'zaro bog'liqligi vositasida o'quvchilarda musiqiy-ma'naviy axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosi qisman tadqiq etilgan.

Biroq, musiqiy pedagogika fanlari doirasida O'zbekiston maktab o'quvchilarida, xususan, musiqa o'qitish metodikasi pedagogik printsiplari va mazmuni maktabi o'quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan. Shu nuqtainazardan ham umumta'lim maktabda musiqa fanini o'qitishning metodik asoslari pedagogik modeli va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega sanaladi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Qadimda O'rta Sharqda musiqaga, pedagogikaga va jumladan, ustozlarga katta humat-ehtiromlar bilan munosabatda bo'lishgan. Masalan, dastavval Xorazmda Zardushtning pand-nasihatlari asosida yaratilgan va keyinroq qadimiy Turon, eron va boshqa ko'plab Sharq mamlakatlarining asosiy diniga aylangan zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"dayoq Gatlari eng muqaddas va qadrli hisoblashgan.

«Musiqqa madaniyati» fani o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. «Musiqqa madaniyati» fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari va bugungi zamonaviy musiqiy-faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bolib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqqa ta'lim tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslublari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

"Musiqqa madaniyati" darslarining didaktik printsiplari Musiqqa madaniyati mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va printsiplari asosida tuziladi. Mazkur printsiplar musiqa rahbari hamda bola tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa mashg'ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi.

Musiqqa darslarida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish mukammal o'ylangan va asoslangan tizim bo'yicha o'tilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu printsiplarning buzilishi bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqa madaniyati mashg'ulot (dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqa rahbari (o'qituvchisi), avvalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqqa savodi, jumladan, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmog'i kerak.

K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilik printsiplining pedagogik samarasi haqida shunday degan: «...bu shunday ta'limki, u tasavvur va so'zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qiladigan ma'lum obrazlarga asoslanadi...». Mazkur printsiplarning ko'rgazmalilik metodni tanlashda uning ilmiy didaktik vazifalarini nazarda tutib, e'tiborni maqsadga muvofiqligiga qaratadi. Musiqqa tarbiyasida musiqaning o'zi ko'rgazmalilik vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida cholib ko'rsatiladi.

Musiqqa darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqa ta'limining to'rt faoliyati mustaqil jarayon bo'lishi bilan birga, ularni bir-biri bilan uzviy aloqada, o'zaro bog'liq ravishda olib borish

kerak. Ushbu jarayonlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, ularni ijodiy shaxs bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, «bir yoqadan bosh chiqarib» faol ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol va yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarga ergashadilar.

Musiqiy qobiliyat faqatgina musiqiy amaliyot, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material va maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin, ya'ni aynan musiqa insonning-musiqiy hislarini uyg'otadi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi va uning barcha ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'ratadi:

1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va tahsil oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki — eshikl hisoblanadi.

2) asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.

3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

**Afzalliklari:** yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonining aniq belgilangan tartib asosida kechishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonning o'qituvchi tomonidan boshqarilishi: o'quv muammosining tahsil oluvchilar yoki ishtirokchilar jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini hamkorlikda izlash jarayonida tahsil oluvchilar orasida o'zaro musobaqa munosabatlarining shakllanishi;

-o'qituvchining tahsil oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emosional ta'sir ko'rsatishi;

-ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida tahsil oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

**Kamchiliklari:** tizimning o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi tahsil oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh yoki juda yaxshi o'zlashtiruvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdagi qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli tahsil oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

Zamonamiz taqozosi bilan musiqa darslari yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun ularda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija bermoqda.

Konsert darslar, viktorina darslar, intervyu darslar, konkurs darslar, yo'naltiruvchi darslar (illyustrativ material yordamida), «stol atrofida» darslari, o'z-o'zini anglash darslari himoya darslari, rasmlar galereya darslari, quvnoqlar va zukkolar darsi, bahs munozara darslari va hokazo. Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi va metodik asosiga egadir.

Boshlang'ich sinflarda darslarni o'yin tarzida olib borilsa, o'quvchilarning faolligi oshib boradi va ular berilgan vazifalarni nisbatan oson bajaradilar. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusini o'tganda, o'quvchilarga turli xildagi musiqa cholg'ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitofon yordamida biror bir cholg'uda ijro etilgan musiqani qo'yadi. O'quvchilar musiqiy asar qanday cholg'uda ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali ko'rsatadilar. Eng faol qatnashgan o'quvchilar baholanadilar va rag'batlantiriladilar.

#### XULOSA

Musiqa o'quvchilarda borliq haqida o'ziga xos «Shaxsiy nuqtai nazar»ni, voqea va hodisalarga faol va ijodiy munosabatni shakllantiradi. Musiqa alohida shaxsga va keng jamoaga ham birdek ta'sir qiladi (emotsional, ijodiy, estetik, g'oyaviy, pedagogik, fiziologik va hokazo). Aynan shuning uchun ham «Musiqa madaniyati» o'quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqib, nazariy va amaliy yo'nalishdagi majsriallarning maqbul nisbatini saqlagan holda, musiqaning

## PEDAGOGIKA

barcha mavjud imkoniyatlarini ochib bera olishi kerak. Shu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz.

O'qituvchilarga:

1. Darslarni tashkil etishda, jumladan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tizimlilikka rioya qilish. Shunda o'quvchilarning shaxsiy sifati bir maromda shakllanadi.

2. Chorak mavzularidan kelib chiqqan holda musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlar bilan uzviy olib borish.

3. Musiqa madaniyati darslarida, xususan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

4. Ilg'or pedagogik tajribalardan ibrat olish va darslarni o'yin tarzida qiziqarli qilib uyushtirish.

5. O'z pedagogik mahoratini, malakasini muntazam ravishda takomillashtirib borish.

Ota-onalarga:

1. Farzandlarining musiqiy madaniyatini rivojlantirish uchun doimo musiqa madaniyati o'qituvchisi bilan aloqada bo'lish.

2. Farzandining musiqiy qobiliyati boriigini sezganda, uni musiqa to'garaklariga, maxsus musiqa maktablariga jalb etish yo'llarini izlash.

3. Oilada farzandlarini radio, televidenie orqali milliy, xalq, estrada musiqasi bilan tanishtirib borish.

4. Farzandlarini yoshiga mos musiqiy asarlar bilan muntazam tanishtirib borish.

5. Maktabdagi musiqa madaniyati darslarida faol qatnashishlari uchun farzandlarini kerakli o'quv qurollari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kartochkalar va chizmalar bilan ta'minlashlari.

Maktab ma'muriyatiga:

1. Musiqa madaniyati kabinetini zamon talablariga mos tarzda jihozlash (pianino, ko'rgazmali qurollar, texnik vositalar va hokazo).

2. Bayramlarda, maktab tashkiliy ishlarida musiqa madaniyati o'qituvchisi va o'quvchilarni konsertlar uyushtirishga jalb etish, buning uchun shart-sharoitlar yaratib berish.

3. Musiqa bo'yicha tuman va shahar tanlovlarida ishtirok etish uchun qobiliyatli o'quvchilarni jalb etish.

4. Maktab ichida musiqiy tanlovlar tashkil etish.

5. Ijrochilik, sozandalik, xonandalik yo'nalishlari bo'yicha sinfdan tashqari to'garaklar tashkil etish.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'ricida"gi O'PQ-637-con Qonuni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelidagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'ricida"gi PQ-2909-conli Qarori / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 29.06.2020 y., 06/20/5370/0975-con, 09.07.2020 y., 06/20/6021/1047-con, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-con.

4. Халиков А.А. Олий таълим муассасасида бўлажак тингловчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш. пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). дис. автореф. – Т.: 2018. – Б. 22

5. Muslimov N.A., Upazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Kasb ta'limi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 b.

6. Muslimov N.A., Uchmonboyeva M.H., Cayfupov D.M., To'payev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik acoclari / – T.: Cano standart, 2015.

7. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaklar misolida). T., 2007, 76 bet.

8. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01.), 2006 y., -198 b.

9. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.